Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

Zarafshon

2024-yil 23-aprel, seshanba, 48 (23.925)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

O‘qilmagan kitobdan fotoalbom yaxshi. Harqalay u xotirani jonlantiradi

Samarqandda MDH kutubxonachilari forumi o‘tkaziladi

Bu haqda “Kitobsevar millat” shiori ostidagi IV respublika “Kitobxonlik haftaligi” ochilish marosimida viloyat hokimi o‘rinbosari Rustam Qobilov ma’lum qildi.

– Bu yilgi haftalik mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib, o‘zgacha ruhda, kerak bo‘lsa, har yilgidan kengroq doirada o‘tkazilmoqda, – dedi R.Qobilov. – Xususan, hokimliklar, yoshlar bilan ishlaydigan tashkilotlar tomonidan kitobxonlik targ‘iboti kuchaytirildi, shaharlar va tumanlarda kutubxonalar barpo etilmoqda, mavjudlari ta’mirlanib, aholi uchun qulay shart-sharoit yaratilmoqda. Viloyat axborot-kutubxona markazi kapital ta’mirlanib, zamonaviy jihozlar bilan ta’minlangach, bu yerda bir vaqtning o‘zida 500 dan ko‘proq kitobxonga xizmat ko‘rsatish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bir necha o‘quv zallari, muzey ekspozitsiyasi, multimedia xonasi, ovoz yozish studiyasi, ilmiy zal, uchrashuvlar va munozaralar o‘tkazish zallari, raqamlashtirish sektori ishga tushirildi, qo‘lyozmalarni restavratsiya va konservatsiya qilish xizmati yo‘lga qo‘yildi. Viloyat kutubxonasida mavjud shart-sharoitni yaxshilash borasidagi ishlar muntazam davom ettirilmoqda. Yaqinda kutubxonaga yana bir qator orgtexnika vositalari xarid qilindi. Xususan, interaktiv panel, tadbirlar o‘tkazish uchun zamonaviy jihozlar olindi. Kompyuterlar yuqori tezlikdagi internetga ulangan, shu yerning o‘zida elektron ko‘rinishda a’zo qilinib, ID karta berish yo‘lga qo‘yilgan.

Viloyatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish borasidagi ishlar natijasida yaqinda Jomboy tumanidagi 12-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 8-sinf o‘quvchisi Nargiza Muhammadiyeva “Yosh kitobxon” tanlovining respublika bosqichida g‘olib bo‘lib, Prezident sovg‘asi bilan taqdirlandi. Bu muvaffaqiyat samarqandlik yoshlarning kitobga mehri oshishiga katta motivatsiya bo‘ldi.

Ma’lumki, Samarqand shahri joriy yilda MDHning madaniy poytaxti deb e’lon qilingan. Shu munosabat bilan yaqinda madaniy tadbirlar boshlandi. Yil yakuniga qadar yigirmaga yaqin yirik tadbirlar ko‘zda tutilgan. Jumladan, 15-may kuni Samarqandda MDH mamlakatlari kutubxonachilarining forumi o‘tkaziladi va ayni paytda ushbu anjumanga qizg‘in hozirlik ko‘ryapmiz.

Haftalik ochilish marosimi doirasida Samarqand viloyati axborot-kutubxona markazi tomonidan hamkor tashkilotlar vakillari va ijodkorlarga esdalik sovg‘alari topshirildi.

– Muassasamizda kitobxonlar uchun barcha qulaylik va imkoniyatlar yaratilgani tufayli keyingi besh yilda kutubxonaga keluvchilar 872 nafardan 25835 nafarga oshdi, – deydi viloyat axborot-kutubxona markazi direktori Zebiniso Shodiyeva. – Kitobxonlik bo‘yicha o‘tkazilayotgan tadbirlarning soni va sifati ham oshib bormoqda. Haftalik davomida markazda bir qator yangi kitoblar taqdimotlari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar, kitobxonlik bo‘yicha turli tanlovlar tashkil etiladi. “Sevimli kitoblar” nomli ko‘rgazma, “Qiziqarli kutubxonada” mavzusida kutubxona bo‘ylab sayohatlar, “Sevimli kutubxonamga kitob sovg‘a qilaman” aksiyasi o‘tkaziladi.

Samarqandlik yana ikki sportchi Parijga boradi

Akademik eshkak eshish bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zolari, samarqandlik Shahzod Nurmatov va Sobir Safaraliyev Janubiy Koreya mezbonlik qilayotgan litsenzion turnirda muvaffaqiyatli ishtirok etib, juftlik dasturida Parij-2024 yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi.
Shu tariqa samarqandlik sportchilarning Parijdagi olimpiya o‘yinlariga yo‘llanmalar soni 8 taga yetdi.

Koreyada o‘zbek madaniyati markazi ochiladi

Yurtimizning Koreya Respublikasi bilan hamkorligi rivojlanib bormoqda. Ayni jarayonni yanada faollashtirish maqsadida har ikkala tomon hamkorlikning yangi istiqbollariga alohida e’tibor qaratishmoqda.

Jumladan, Koreya Respublikasi Kvanju shahrining Kvangsan-gu tumani hokimi Pak Byun Kyu boshchiligidagi delegatsiya mamlakatimizning turli hududlarida bo‘lib, mahalliy rahbarlar bilan muloqotlar o‘tkazmoqda. Delegatsiyaning Samarqand viloyatiga tashrifi ham ko‘zlangan maqsadlar sari yana bir dadil qadam bo‘ldi. Mehmonlar “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti rahbariyati bilan uchrashuv o‘tkazib, o‘zaro hamkorlik aloqalari istiqbollarini muhokama qildi.

– Koreya delegatsiyasi bilan bo‘lib o‘tgan samimiy muloqotimiz davomida oldimizda turgan dolzarb masalalarni muhokama qilib, kelshuvlarga erishdik, - deydi “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti prorektori Dilmurod Nasimov. – Universitetimiz xalqaro maqomga ega bo‘lganligi bois bizda xorijiy hamkorlar bilan aloqalar alohida e’tiborga ega. Bugungi kunda universitetning 1 ta fakulteti va 3 ta kafedrasida 9 ta bakalavriat ta’lim yunalishi va 10 ta magistratura mutaxassisligi bo‘yicha 3000 ga yaqin talaba tahsil olmoqda. Ularning 62 nafari 16 davlatdan kelgan xorijiy talabalar hisoblanadi.

Universitet tarkibida o‘zbek, ingliz, xitoy, koreys, arab, yapon, fors, rus tillarida nashr qilingan 24371 ta turizmga oid ilmiy va o‘quv adabiyotlar mavjud bo‘lgan kutubxona hamda 4 ta kollej va 6 ta texnikum mavjud.

Bugungi kunda universitetimiz xorijdagi 80 dan ziyod nufuzli oliy ta’lim muassasalari, ilmiy tadqiqot markazlari va tashkilotlari bilan aloqa o‘rnatgan va ular bilan professor-o‘qituvchilar tajriba almashinuvi, talabalar almashinuvi, ilmiy konferensiya, seminar va forumlar o‘tkazish hamda xalqaro ta’limni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi boshqa yo‘nalishlarda samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, Koreyaning 3 ta oliy ta’lim muassasasi, Koreya Madaniy meros fondi bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Bugungi uchrashuv davomida Kvangsan-gu tumanida joylashgan Xonam universiteti bilan hamkorlik memorandumini imzoladik. Kelishuvga ko‘ra, universitetimizda koreys tili va madaniyatini targ‘ib qiluvchi markaz, Xonam universitetida esa o‘zbek tili va madaniyati targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi markaz tashkil qilinadi.

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida o‘tkazilgan muloqot davomida tomonlar o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish, shuningdek, har ikki tomonda madaniy markazlar tashkil qilish, professor o‘qituvchilari, talabalar almashinuvini yo‘lga qo‘yish borasida o‘zaro fikr almashishdi.

Xususan, Kvangsan-gu tumani hokimi janob Pak Byun Kyu muloqot davomida o‘z tumani haqida batafsil ma’lumot berib, tuman Kvanju shahri iqtisodiyotining lokomotivi ekanligini ta’kidladi. Bugungi kunda tuman sanoat, ishlab chiqarish sohasida ulkan salohiyatga ega. Xorijdan kelib, mehnat faoliyatini olib borayotganlarning 55 foizi mazkur tumanda istiqomat qiladi. E’tiborlisi, ularning asosiy qismi o‘zbekistonlik. Xonam universiteti tumandagi nufuzli universitetlardan biri.

– 1978-yilda tashkil etilgan universitetimiz xususiy bo‘lsa-da, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi, – deydi Xonam universiteti prezidenti Park Sanchxol. – Xorijliklar bilan birgalikda 9 ming 200 nafar talaba qirqdan ortiq yo‘nalishda tahsil olmoqda. Asosiy ixtisoslashuvi menejment, mehmonxona xizmati va turizm yo‘nalishlari hisoblanadi. “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti bilan o‘zaro hamkorligimiz keng rivojlanadi. Chunki bizning ixtisoslashuvimiz deyarli bir xil.

Koreyalik mehmonlar tashrif davomida Samarqandning diqqatga sazovor joylari bilan ham yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

A.ISROILOV.

Kun mavzusi

ELEKTR va GAZ ning NARXI NEGA OSHIRILDI?

2024-yilning 16-aprel kuni Vazirlar Mahkamasining “Yoqilg‘i-energetika sohasida bozor mexanizmlari joriy etilishining qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, 2024-yil 1-maydan energetika sohasida, jumladan, elektr energiyasi va tabiiy gaz tariflari oshdi. Bunga asosiy sabab so‘nggi marta aholi uchun tariflar 2019-yil 1-avgustdan boshlab oshgan bo‘lib, 1 kubometr tabiiy gaz va 1 kilovatt elektr energiyasi uchun bozor narxidan bir necha bor arzon holda to‘lab kelinayotgan edi.

Maishiy iste’molchilarning yetishmayotgan summalari esa davlat mablag‘lari hisobidan qoplanib kelingan. Oqibatda budjetda yetishmovchilik paydo bo‘ldi. Mana shu subsidiyalash tizimi orqali sohani modernizatsiya qilish uchun ajratilishi kerak bo‘lgan mablag‘lar yillar davomida soha korxonalarini dotatsiyadan chiqarish va moliyaviy taqchillikni qoplashga yo‘naltirilib kelingan.

- Qarorga muvofiq, yoqilg‘i-energetika resurslarining 2024-2025-yillarda bosqichma-bosqich o‘zgaradigan yangi narxlari qabul qilindi, - deydi “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Samarqand filiali direktori o‘rinbosari Alijon Norqobilov. - Joriy yilning may oyidan boshlab aholi uchun elektr energiyasi va tabiiy gaz iste’molining 1 oylik bazaviy me’yorlari tasdiqlandi.

Aholiga sotilayotgan suyultirilgan gazning bir kilogrami uchun to‘lov 1600 so‘m qilib belgilanyapti. 2024-yilning 1-iyulidan boshlab avtomobillarga gaz to‘ldirish kompressor shoxobchalari uchun 1 kubometr tabiiy gaz narxi 1800 qilib belgilanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan 1-maydan boshlab metan shoxobchalarda narxlar oshishi haqidagi gap-so‘zlar asossiz. Chunki Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-martida qabul qilgan 173-sonli qaroriga ko‘ra, joriy yilning 1-iyuligacha metan “zapravka”larda sotiladigan 1 kubometr gazning narxi 3350 so‘m qilib qat’iy belgilangan.

2025-yilning 1-aprelidan elektr energiya iste’molining to‘lovida yana o‘zgarishlar bo‘ladi. Shuningdek, aholi joriy yilning 1-mayidan energoresurslar uchun ijtimoiy norma asosida tabaqalashtirilgan tartibda haq to‘lashga o‘tadi. O‘tish davrida aholini moddiy qiyinchilikdan himoya qilish maqsadida ijtimoiy norma ham kiritilyapti. Bu norma elektr energiyasi uchun 200 kilovatt-soat, tabiiy gaz uchun 100 kubometr qilib belgilandi. Isitish mavsumida tabiiy gazning ijtimoiy normasi 500 kubometrgacha ko‘tariladi.

Yana bir gap, joriy yil 1-maygacha hisob-raqam to‘ldirib qo‘yilsa, 2 oy mobaynida eski tarif amal qiladi. Ya’ni, Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra, energoresurslar uchun oldindan pul to‘lab qo‘ygan iste’molchilar tarif o‘zgargan taqdirda ham 2 oy davomida eski tarif bo‘yicha hisob-kitob qilinadi. Biroq maishiy iste’molchi o‘z xohishiga ko‘ra, 2 oydan ko‘p bo‘lmagan muddat uchun elektr energiyasidan foydalanish haqini oldindan to‘lab qo‘yishi mumkin. Bunda tarif o‘zgarsa ham qiymat qayta hisob-kitob qilinmaydi. Xuddi shunday me’yor «Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari»da ham belgilab qo‘yilgan. Unda tariflar o‘zgargan hollarda tabiiy gaz hajmi uchun avans tariqasida to‘lovni amalga oshirgan iste’molchi 2 oydan ortiq bo‘lmagan muddatga qo‘shimcha to‘lovlarni amalga oshirishdan ozod qilinishi qayd etilgan. Ammo qarzdor yoki may oyining boshidayoq shaxsiy hisob raqamida mablag‘i tugab, yangi to‘lovni amalga oshirishga majbur bo‘lgan abonentlar uchun tarif o‘zgaradi hamda ular tegishli tartibda yangi tarif bo‘yicha hisob-kitob qilinadi.

Dilmurod TO‘XTAYEV.

Ochig'ini aytganda

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining bilimi adolatli baholanyaptimi?

Ushbu savolga javob topish maqsadida respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot "Aksilkorrupsiya laboratoriyasi" loyihasi doirasida "Yuksalish" harakatining korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda "Mintaqaviy muloqot" xalqaro nodavlat tashkiloti (Sloveniya) bilan hamkorlikda amalga oshirildi.

Ushbu tadqiqot orqali oliy ta'lim muassasalari talabalariga baho qo'yishda korrupsiyaga oid muammolar va ularning sabablarini aniqlashga harakat qilindi. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovlar korrupsiya manipulyatsiyasining tizimli ko'lamini emas, balki asosiy jihatlarini ko'rsatdi. Tizimda quyidagi sabablarga ko'ra talabalar baholarini manipulyatsiya qilishda kamchiliklar borligi aniqlandi. Masalan, HEMIS elektron tizimining unga kim kirishi mumkinligini tartibga solish uchun tegishli tizim yo'q. Shu bois pedagoglar Hemis bilan bog'liq vazifalarni boshqalarga, shu jumladan, talabalarning o'zlariga topshirishi mumkin. Yanayam hayratlanarlisi, o'qituvchilar qaydnomalarining dekanatlarda saqlanishi tufayli baholarni o'zgartirish mumkinligi aniqlandi. Pedagogik jamoada ham, talabalar orasida ham baholar faqat iqtidor yoki qobiliyatga qarab belgilanishi tamoyiliga qat'iy rioya etilmaydi.

Respondentlarning fikricha, 27,88 foiz holatda qo'yilgan bahoni o'zgartirish maqsadida talabalar tomonidan o'qituvchiga bosim o'tkaziladi. 16,03 foiz holatda talabalar yuqori baho olish maqsadida o'qituvchilarga sovg'a va mukofotlar taklif qiladi, 10,00 foiz holatda esa OTM ma'muriyati o'qituvchilarning shaxsiy kabinetiga kirib, HEMIS tizimidagi baholarni o'zgartiradi. Shuningdek, 9,45 foiz holatda talabaning darsda qatnashmasligi, 8,33 foiz holatda esa soxta tibbiy ma'lumotnoma taqdim qilishi aniqlandi.

Ta'limdagi korrupsiyaga faqat texnokratik choralar, masalan, baholashda ixtiyoriylikni kamaytirish, imtihonlarni kuzatish, nomaqbul xatti-harakatlarga sanksiya qo'llash va hokazolar bilan qarshi turish yoki oldini olish mumkin emas.

Umuman olganda, ta'lim sifati o'qituvchilarga hurmat va qobiliyatga qarab baholash tamoyilining ishlashiga bog'liq. Bu hurmat o'z navbatida, pedagoglarning kasbiy halolligi va malakasidir. Baholash faqat akademik natijalarga asoslangan bo'lishi kerakligi haqida yetarlicha keng yakdillik mavjud bo'lmasa, talabalarni baholash tizimi to'g'ri ishlamaydi. Bunday yakdillik yo'q joyda manipulyatsiyani osonlikcha normallashtirish mumkin va bunga albatta, korrupsiya sifatida qaralmaydi. Bu shunchaki o'quvchilarning bosimi hamda o'qituvchilar va rahbariyatning befarqligi yoki yashirin roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. To'g'ri, konsensus madaniyatni yaratishni ta'minlash korrupsiyaning oldini olishdan ko'ra ko'proq narsani talab qiladi. Ballarni manipulyatsiya qilish hech kimga zarar keltirmasa, bunga erishish qiyin.

KORRUPSION XATTI-HARAKATLAR SABABCHILARI KIM?

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, korrupsion xatti-harakatlarga 76,7 foiz talabalar, 34,3 foiz o'qituvchilar, 25,4 foiz talabalarning qarindoshlari, 15,6 foiz holatda OTM ma'muriyati sababchi bo'lar ekan.

Respondentlarning deyarli 28 foizi talabalar (va ularning qarindoshlari) bo'lib, ular qo'yilgan past bahoni yuqori bahoga o'zgartirish maqsadida o'qituvchiga bosim o'tkazishini ta'kidladi.

AXBOROT TIZIMLARI (HEMIS) KERAKMI?

Bugungi kunda universitetlar HEMIS axborot tizimidan axborot bilan ta'minlash va o'quv jarayonini nazorat qilish uchun foydalanmoqda. Ushbu tizim universitet faoliyatini monitoring qilish mexanizmi sifatida ishlab chiqilgan. Ammo bu borada mazkur tizimning me'yoriy-huquqiy bazasi tasdiqlanmagan, ushbu tizim tobora kengayib borgani uchun maqsad va vazifalar aniq qilib belgilanmagan. Respublika Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasini o'zgartirishni jadallashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Uning doirasida 2023-yilning sentabrigacha oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim, fan hamda innovatsiyalar sohasida yagona integratsiyalashgan raqamli ekotizimni yaratish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish topshirig'i berildi. Ayni paytda HEMIS axborot tizimi uchun me'yoriy-huquqiy baza mavjud emas. Bu korrupsiya va halollik uchun katta xavf hisoblanadi. Chunki tizimga kimlar kirishi haqida rasmiy tartib yo'q.

Nodir QUDRATOV,
"Yuksalish" harakati Samarqand viloyati bo'linmasi bosh mutaxassisi.

Yangi bino, yangi bekat, yangicha xizmat

Samarqand shahridagi Rudakiy ko'chasida yangi bekat paydo bo'lganiga ko'pchilik e'tibor berganmi, yo'qmi, ammo uning yonginasida ikkita zamonaviy bino qisqa fursatda qad rostlaganiga ko'zingiz tushgandir. Hali binoga kirmasimizdanoq bu maskan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, imkoniyati cheklangan insonlar murojaat etadigan markaz ekanligi infrastrukturadan ham bilinadi.

Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 174-uyda joylashgan markaz yonginasida "Inson" bekati tashkil etilgan. Avtomobillar serqatnov bo'lgani uchun aynan shu bino yonida piyodalar o'tishi yo'lagi, ovozli va aholi boshqarishi mumkin bo'lgan svetofor o'rnatilgan. Binoga kirish uchun imkoniyati cheklangan insonlar uchun barcha qulayliklar yaratilgan, ko'zi ojiz insonlar harakatlanishi uchun maxsus taktil plitalar terilgan, aravachada harakatlanadigan insonlar uchun maxsus panduslar xalqaro andazalarga mos tarzda qurilgan. Binoning ichida ham xuddi shunday, zarur joylarda maxsus taktil plitkalar, aravachalar harakatlanishi uchun xonalarga to'siqsiz kirish imkoniyati mavjud.

Samarqand shahridagi "Inson" (Innovatsion, natijador, samarali, oson, najotkor) - ijtimoiy xizmatlar markazi yaqinda yangi, zamonaviy binoda ish boshladi. Markaz faoliyati bilan tanishtirish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari uchun press-tur uyushtirildi.

- Nafaqat harakatlanish, balki xizmat ko'rsatishda ham xuddi shunday qulayliklar e'tiborga olindi, - deya gapirib beradi Samarqand shahridagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari o'rinbosari Baxtiyor Ismoilov. – Murojaat qilib kelgan aholining qaysi bo'limga borishidan boshlab, uni qiynayotgan masala binoga kirishdanoq faoliyat ko'rsatadigan xodimlar tomonidan yo'naltiriladi. Markazimizning o'zida bugungi kunda aholining 12 toifa vakillariga 23 turdagi yordam va xizmatlar ko'rsatiladi. Ilgari bu xizmatlar turli tashkilotlar tomonidan amalga oshirilgan. Endilikda 15 ta turli doiradagi tashkilot yoki uning bo'limlari funksiyasi bir joyda jamlandi. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazining tashkil etilishi ko'makka muhtoj aholining bitta binoda ishini hal qilish imkoniga egaligi, qolaversa, mazkur xizmatlar yanada soddalashtirilgani, xizmatchilar o'z vazifasini amalga oshirishda ilgarigidan ko'ra zamonaviy, takomillashgan vosita, dasturlardan foydalangani bilan muhim ahamiyatga ega.

Markaz murojaat etuvchi aholi bilan ishlaydi, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar ro'yxatini tuzadi va ularga zarur yordam ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Buning uchun bugun mahallalarda ijtimoiy xodim ish boshlagan. Samarqand shahrida 215 mahalla mavjud bo'lsa, ularda 64 nafar ijtimoiy xodim faoliyat ko'rsatmoqda.

Markazni aylanarkanmiz, unda ijtimoiy xizmatning qariyb barcha shakllari aynan shu yerda jamlanganiga guvoh bo'ldik. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish, nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash, mahallada ijtimoiy xizmatni tashkil etish, katta yoshdagi va og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan oilalar bilan ishlash bo'limi va hokazo.

- Hozirda Samarqand shahrida o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi yoki yolg'iz keksa va nogironligi bo'lgan shaxslar 324 nafarni tashkil etadi, - deydi markazning katta yoshdagi va og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan oilalar bilan ishlash bo'limi rahbari Akbar Karimov. – Ularning 118 nafari yolg'iz keksalar hisoblansa, 206 nafari yolg'iz yashovchilardir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yolg'iz keksalar bilan yolg'iz yashovchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar turlicha. Ushbu fuqarolarga 33 nafar ijtimoiy assistent tomonidan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari, zarur sanoat mahsulotlari va dori-darmonlar sotib olish va uyiga yetkazib berish, ovqat tayyorlash, uyni yig'ishtirish-tozalash, gigiyena ishlarida ko'maklashish, ijtimoiy va maishiy xizmat ko'rsatish, hujjatlarini qayta tiklashda ko'maklashish kabi xizmatlar ko'rsatiladi.

Ular doimiy ravishda to'liq tibbiy dispanser ko'rigidan o'tkazib kelinadi. 10 nafari sanatoriy oromgohlariga bepul yuborilib, sog'lomlashtirildi.

Tizimni yanada takomillashtirish maqsadida markaz xodimlari tomonidan qirqqa yaqin takliflar bildirilgan.

Markaz binosi va xizmat ko'rsatish xalqaro andazalarga mos amalga oshirilayotgani kishiga taskin beradi. Bu jarayon eng quyi tizim – mahallada ham shu taxlit amalga oshiriladi, deb o'ylaymiz.

Gulruh MO'MINOVA.

BU FAKT!

Statistika boshqarmasiga ko'ra, 2024-yil yanvar-fevral oylarida viloyat importi tarkibida sanoat mahsulotlari hajmi 102,1 million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 154,6 foizga yetdi.

Bulung'ur tumanidagi "Sayiltepa" mahallasining Tinchlik ko'chasida yashovchi nuroniy otaxon Ismat bobo Nazarovlar xonadoni uzoq-yaqindan kelgan mehmonlar bilan gavjum bo'ldi.

Nomi tillarda doston bo'layotgan bu xonadonda mingdan ortiq bahor gullaridan biri "LOLA" sayili bo'lib o'tdi.

Qizil, sariq va atirgul shaklidagi barq urib ochilgan lola gullari kishining bahri-dilini ochib yuboradi.

- Jannatmonand bu xonadon dovrug'ini Samarqand shahrida eshitib, bolalarimiz bilan lola sayiliga keldik,- deydi mehmonlardan biri Nafisabonu.

Bundan tashqari 20 sotixli maydonda barq urib gullayotgan nok, shampan gilosi, shaftoli, o'rik kabi mevali daraxtlarning gullari ham ko'zni quvontiradi.

- Hovlimizda erta bahordan boshlab to birinchi qorgacha yashnab, ochilib turadigan gullarimiz bor, - deydi keksa bog'bon Ismat bobo. - So'rab kelgan gul shaydolariga turli xil gul ko'chatlarini ulashamiz.

Rabbim HOTAMOV.

«Yashil energiya»dan foydalanish

ham tabiatga, ham o'zingizga manfaat keltiradi

Yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, quyosh batareyalari chiroq tez-tez o'chib turganida odatdagidek hayot kechirish imkonini beryapti. Biroq viloyatimizning barcha tumanlarida ham "yashil energiya"dan foydalanib, aholi turmush tarzini yaxshilash talab darajasida emas.

Bugungi kunda Samarqand tumanida "Yashil energiya" manbalarini o'rnatish borasida nima ishlar qilinmoqda? "Quyoshli xonadon" dasturi bo'yicha aholi xonadonlariga quvvati 50 kVt. gacha bo'lgan quyosh panellarini o'rnatish rejalari nega bajarilmay qoldi?

- O'tgan yili Prezidentimizning "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingach, quyosh panelini o'rnatganlarga subsidiya va soliq imtiyozlari berilishi, tadbirkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar ko'pchilikni qiziqtirib qo'ydi, - deydi Samarqand tumani ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi boshlig'i Javohir Xo'jayev. – Chunki yuqori quvvatda ishlovchi quyosh panellari bilan artezian quduqlaridan suv tortish imkoni bor. Biroq o'tgan yili tumanimiz tadbirkorlari tomonidan 2,3 MVt o'rniga 1,18 MVt quvvatli 81 ta panel o'rnatilib, bu boradagi rejalarning yarmi amalga oshirilmadi.

Tuman hokimligi rejasiga asosan, hozirgacha 312 ta aholi xonadoniga muqobil elektr manbai o'rnatilgan. O'tgan uch oy ichida Dehnav, Gulobod, Ohalik, Parrandachilik, Chumchuqli, O'zbekkenti, Andijoni mahallalarida 74 nafar fuqaro o'z xonadoniga quyosh panellari o'rnatdi.

Gulobod mahallasida 5 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. Hokimlik rejasiga ko'ra, o'tgan yili 30 ta xonadonga quyosh paneli o'rnatilishi kerak edi. Biroq amalda bu ish 21 foizga bajarildi.

- Mahallamizdagi aholi xonadonlariga muqobil energiya manbalari o'rnatish bo'yicha targ'ibot olib boryapmiz, - deydi Gulobod mahallasi raisi Saodat G'aniyeva. – Xonadon egalariga muqobil elektr manbalarining afzalligi, kamxarajatligi va boshqa qulayliklari haqida tushuntiryapmiz. Imkoni bo'lganlar o'rnatib olyapti, ayrimlariga homiy jalb qilyapmiz. O'ndan ziyod tadbirkorlar o'z korxonalariga energiya tejovchi uskunalar o'rnatdi. O'tgan yili 5 ta xonadonda 4,5 kVt.li quyosh panellari o'rnatilgan bo'lsa, bu yil ularning soni 20 dan oshdi. O'zim ham uyimga o'rnatib olganman.

Mahalla yaqinida muqobil energiya manbalari bilan savdo qiladigan qator do'konlar faoliyat yuritadi. Joriy yilning 1-mayidan boshlab elektr energiya iste'moli narxlari oshishi haqidagi xabarlar tarqalishi bilan ularga bo'lgan talab ham oshib ketgan. Hozirning o'zidayoq 50 dan ziyod fuqaro energiya tejovchi uskunalarga buyurtma berishibdi.

"Tolli bobo" qurilish korxonasi tomonidan mahalla hududida 2 ta 9 qavatli uy-joy qurilmoqda. Bu uylar ham o'z egalariga topshirilishidan oldin quyosh panellari va kollektorlari o'rnatiladi.

Biroq tumandagi Yangiobod, Pulimug'ob, Saxovat mahallalarida hali bu ishga qo'l urilmagan bo'lsa, Chaman, Talibarzui bola, Xishrav, Buxoriy, Do'stlik mahallalarida 10 foizga ham yetgani yo'q. Bu ko'rsatkich tuman bo'yicha 32 foizni tashkil etmoqda.

- Aholi o'rtasida "yashil energiya" texnologiyalari asosida bino va inshootlarini elektr energiyasi va issiqlik bilan ta'minlashga bo'lgan qiziqishi oshib bormoqda, -deydi J.Xo'jayev. - Bunday qurilmalar yurtimizda ham korxonalar tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Quyosh batareyalarini sotib olayotganda, fuqarolar xonadon yoki uyning hajmini, ya'ni, xonalar soni, oshxona, balkon, yo'laklarni ham hisobga olgan holda ularning quvvati bo'yicha tanlashi kerak.

Mutaxassislarning fikricha, eng arzon quyosh panellari 150 Vt quvvatga ega bo'lib, ulardan 5-6 xonani yoritish va bitta televizor ishlashi uchun foydalanish mumkin. Agar ikkita televizor, bitta muzlatkich va ko'proq xonalarni elektr energiyasi bilan ta'minlash zarur bo'lsa, kamida 2 kVt quvvatga ega quyosh paneli kerak bo'ladi. Agar konditsionerdan foydalanilsa, 3 kVt quvvatga ega panel olish zarur.

Elektr energiyasi bizga har kuni kerak. Buning uchun tabiat in'om etgan qayta tiklanuvchi manbalardan samarali foydalanish lozim.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Viloyat Matbuot uyida viloyatimizda davlat xizmatlarini ko‘rsatish hamda FHDY sohasida 2024-yil 1-choragida amalga oshirilgan ishlarga bag‘ishlangan matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi. Unda viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i Salohiddin Sattorov mavzu yuzasidan ma’lumot berdi.

Ko‘rsatilmagan xizmatlar uchun to‘langan pulni qaytarib olish mumkin

Hisobot davrida viloyatda fuqarolarga 379242 ta davlat xizmatlari ko‘rsatilgan. Shundan 35 foizi, ya’ni 133021 tasini onlayn, 246221 tasini Davlat xizmatlari markazlari orqali ko‘rsatilgan xizmatlar tashkil etadi. Bu o‘tgan yilgi ko‘rsatkichdan 46097 taga ko‘p.

— Asosiysi, soha tizimli isloh qilinib, aholiga qo‘shimcha qulayliklar yaratilmoqda, - deydi Salohiddin Sattorov. - Misol uchun, joriy yilning 1-choragida 21 ta yangi davlat xizmati yo‘lga qo‘yilib, xizmatlar soni 356 taga yetkazildi. Yil oxirigacha ularning sonini 400 taga yetkazish ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, eng ko‘p ko‘rsatilgan 29 ta xizmat “3 qadam” tamoyili asosida soddalashtirilib, ularda so‘raladigan ma’lumotlar 225 tadan 99 taga, ariza yuborish uchun sarflanadigan vaqt esa 76 daqiqadan 22 daqiqaga qisqartirildi. Yil yakunigacha bu tamoyil barcha xizmatlarda joriy etiladi. Shuningdek, 46 ta davlat xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha ma’muriy reglamentlar qabul qilinib, 37 ta davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonlari tizimlashtirildi.

Tadbirda qonunchilikda nazarda tutilgan ammo fuqarolar kam foydalanayotgan ayrim huquqlar ham tilga olindi. Jumladan, murojaatchining arizasiga ko‘ra, davlat xizmatlari markazlari orqali xizmatlardan foydalanishda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ortiqcha to‘langan, davlat xizmatini tezlashtirilgan tartibda ko‘rsatish uchun qo‘shimcha to‘langan yig‘imlar va to‘lovlar davlat xizmatlarini ko‘rsatish belgilangan muddatdan uch ish kunidan ortiq vaqtga kechiktirilgan (yoki tezlashtirilgan tartibda ko‘rsatilmagan) yoki asossiz rad etilgan taqdirda qaytarib berilishi kerak. Bu jarayon soddalashtirilgan tartibda bir ish kuni ichida amalga oshiriladi. Biroq fuqarolar bu imkoniyatdan to‘liq foydalanmayapti. Holbuki, joriy yilning o‘tgan 3 oyida davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida 29320 qonunbuzarlik aniqlangan. Shundan 26925 holatda davlat xizmatlarini ko‘rsatish muddati buzilgan, 31 holatda ortiqcha hujjat talab qilib olingan, 2337 holatda esa murojaatlar asossiz rad etilgan.

Misol uchun, “Samarqand suv ta’minoti” MChJ Past Darg‘om tumani filiali ishlab chiqarish texnik bo‘limi muhandisi Z.K. fuqaro Sh.Z.ning shu yil 4-mart kuni yuborilgan, qonun talablari bo‘yicha 3 ish kunida ko‘rib chiqilishi kerak bo‘lgan so‘rovnomasini 27-martgacha ko‘rib chiqmagan. Bunday holat uning nazoratidagi 100 dan ortiq boshqa so‘rovnomalarda ham takrorlangan.

S.Sattorovga ko‘ra, bu kabi holatlar bo‘yicha vakolatli idoralarning rahbarlari nomiga 26 ta taqdimnoma va 633 ta ogohnoma kiritilgan. Shuningdek, 153 nafar aybdorga nisbatan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnomalar rasmiylashtirilib, 10 nafarining intizomiy javobgarlikka tortilishi ta’minlangan.

Sport sohasida qanday qonunbuzilish holatlari, muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda?

Viloyat sport boshqarmasi boshlig‘i Shuhrat Ro‘ziyev, soha mas’ullari hamda sport maktablari direktorlari ishtirokida o‘tkazilgan matbuot anjumanida asosiy savol shunday bo‘ldi.

Dastlab sport sohasida korrupsiyaviy holatlarning oldini olish va ularga barham berish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma’lum qilindi. Ta’kidlanishicha, sport sohasida qonunbuzilish holatlari va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish uchun vazirlik tizimida aloqa kanallari hamda ishonch telefonlari ishlamoqda. Shuningdek, tizimda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsion holatlarning oldini olish, davlat budjeti mablag‘laridan samarali foydalanish, ortiqcha ovoragarchilikka barham berish maqsadida sohadagi 24 ta yo‘nalishni qamrab olgan “ERP-Sport” yagona elektron boshqaruv tizimi ishga tushirilgan.

- Korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirish uchun boshqarmamizda korrupsiyaga qarshi kurashish jamoatchilik tuzilmasi ish olib boryapti, - deydi Sh.Ro‘ziyev. – Ammo shunga qaramay, keyingi paytda sohada kadrlarni tanlash, ish haqlarini hisoblash va to‘lash, sport ta’lim muassasalariga o‘quvchilarni qabul qilish, sport muassasalarining moddiy-texnik ta’minoti, trener-o‘qituvchilarga malaka toifasi hamda sport pasportini berish bilan bog‘liq qonunbuzilishlar uchramoqda. Xususan, yaqinda Toyloq, Payariq va Narpay tumanlaridagi sport muassasalarida shu kabi holatlar kuzatilgan bo‘lsa, respublika ishchi guruhining o‘rganishi natijasida Qo‘shrabot, Nurobod va viloyatning yana bir qator tumanlarida “Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalarini tashkil qilish, aholining jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlarini olish hamda seleksiya ishlari bilan bog‘liq muammo va kamchiliklar aniqlandi. Kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan mas’ullarga topshiriqlar berilgan.

AHOLINING JISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASI SINOVDAN O‘TKAZILADI

Prezidentimizning joriy yilning 21-fevralida imzolangan «O‘zbekiston — 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida besh yo‘nalishda “Jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlari o‘tkazilmoqda.

Matbuot anjumanida viloyatda ham joriy yilning mart-aprel oylarida 7 yoshdan 17 yoshgacha, aprel-may oylarida 18 yoshdan 29 yoshgacha, avgust-sentabr oylarida 30 yoshdan 49 yoshgacha, oktabr-noyabr oylarida 50 yosh va undan katta yoshdagi shaxslardan hamda davlat organlari va tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan xodimlardan jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlari qabul qilinayotganligi ma’lum qilindi.

- Ayni paytda viloyatdagi 1264 ta umumta’lim maktabida tahsil olayotgan 781 mingdan ziyod o‘quvchidan sport sinovlari olinmoqda, - deydi viloyat sport boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i A.Shamsiyev. - Ishtirokchilar uzoq va qisqa masofaga yugurish, yurish, basketbol savatchasiga to‘p kiritish, uzun va qisqa masofaga sakrash, granata uloqtirish shartlarida o‘zini ko‘rsatyapti. Mashqlarni bajarish darajasiga qarab ishtirokchilarga ball qo‘yib borilmoqda va yuqori natijani qo‘lga kiritgan o‘quvchilar joriy yilning may oyida Sport vazirligining esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi va turli imtiyozlarga ham ega bo‘ladi.

“PARIJ-2024” O‘YINLARIGA SAMARQANDDAN 16 NAFAR SPORTCHI BORISHI KUTILMOQDA

Viloyat sport boshqarmasi boshlig‘i Sh.Ro‘ziyevning ma’lum qilishicha, joriy yil Parij shahrida bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlariga 12 nafar, XVII Paralimpiya o‘yinlariga 4 nafar sportchining litsenziya olishi kutilmoqda. Hozirga qadar Olimpiya o‘yinlariga badiiy gimnastika bo‘yicha Taxmina Ikromova, yunon-rum kurashidan Islom Bahromov, boks bo‘yicha Nigina O‘ktamova hamda Paralimpiya o‘yinlariga para yengil atletika bo‘yicha Husniddin Norbekov, Kubaro Hakimova va Urganchbek Egamnazarov litsenziyani qo‘lga kiritgan.

621 MINGDAN ZIYOD YOSHLAR “BESH TASHABBUS OLIMPIADASI”DA QATNASHYAPTI

Tadbir yakunida joriy yil viloyatda 796 ta mahalliy, respublika va xalqaro sport tadbiri va musobaqalarini o‘tkazish belgilangani, shuningdek, ommaviy sport tadbirlari sonini 1722 ga oshirish orqali 1 million 159 ming nafarga yaqin aholini sportga jalb qilish rejalashtirilgani aytildi. Ayni paytda “Besh tashabbus olimpiadasi” ommaviy sport musobaqalarida ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tgan 621 ming 461 nafar yoshlar o‘rtasida voleybol, kurash, gimnastrada, futbol va mini futbol, armrestling, stol tennisi, yengil atletika, vorkout, stritbol, shaxmat-shashka musobaqalari davom etmoqda.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

Yer resurslarining milliy hisoboti nima?

Kadastr agentligi tomonidan har yili yanvarda yer resurslarining holati to‘g‘risida milliy hisobot tuziladi.

Yer resurslarining holati to‘g‘risida milliy hisobot respublikamiz yer fondini kuzatish, miqdor va sifat darajasining o‘zgarishini o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu hisobot davlat kadastrlarini yuritish, yer tuzish, yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, yerlarning muhofaza qilinishini axborot bilan ta’minlash uchun muhim hujjat sifatida foydalanishga mo‘ljallangan.

2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy hududiy chegaralari doirasidagi umumiy yer maydoni 44892,4 ming gektarni tashkil qiladi.

Foydalanish maqsadiga qarab, yer fondi 8 ta toifaga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan, aholi punktlarini, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekratsiya maqsadlariga mo‘ljallangan, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik, o‘rmon fondi, suv fondi, zaxira yerlariga bo‘linadi.

Hisobot davrida viloyatimizning umumiy yer maydoni 1677301 gektarni, ushbu yerlardan foydalanuvchilar soni 25251 tani tashkil etdi. Yer fondi bo‘yicha 8 ta toifaga oid va “UzKAD” dasturida hisobga (ro‘yxatga) olingan. Ya’ni, qishloq xo‘jaligi yerlari 147010 gektar, yerdan foydalanuvchilar soni 12162 ta bo‘lib, “UzKAD” dasturida hisobga olingan yer maydonlari 1209227 gektarni, aholi punkti yerlari 19351 gektar, yerdan foydalanuvchilar soni 2984 tani tashkil etdi. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar 90 398 gektar, yerdan foydalanuvchilar soni 9 142 ta bo‘lib, “UzKAD” dasturida hisobga olingan yer maydonlari 6 914 gektar, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekratsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar 82 gektar, yerdan foydalanuvchilar soni 8 ta, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar 399 gektar, yerdan foydalanuvchilar soni 341 ta bo‘lib, “UzKAD” dasturida hisobga olingan yer maydonlari 399 gektarni tashkil etdi. O‘rmon fondi yerlari 56247 gektar, yerdan foydalanuvchilar soni 16 ta bo‘lib, “UzKAD” dasturida hisobga olingan yer maydonlari 56247 gektarni, suv fondi yerlari 28318 gektar, yerdan foydalanuvchilar soni 579 ta bo‘lib, “UzKAD” dasturida hisobga olingan yer maydonlari 28318 gektarni va zaxira yerlar 11 796 gektar, yerdan foydalanuvchilar soni 19 ta bo‘lib, “UzKAD” dasturida hisobga olingan yer maydonlari 11796 gektarni tashkil etdi.

Nozir MARDONOV,
Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasi shu’ba boshlig‘i.

Sanjar (ism-familiya va korxonalar nomlari shartli) bankda kreditlarni monitoring qilish va qarzdorliklarni undirish bo‘limi bosh mutaxassisi bo‘lib ishlardi. 2018-yildan buyon faoliyat ko‘rsatayotgan “Zebo servis” MChJ rahbari N.Shodmonov Sanjar ishlayotgan bankdan hisob raqam ochdi va “Shirin dunyo” MChJ rahbari D.Sobirov bilan uch tomonlama kafillik shartnomasi tuzib, 2018-2021-yillarda shu bankdan uch marta kredit oldi.

Bank xodimi kredit mablag‘larini talon–toroj qildi

Bu qarzlarning ikkitasi so‘ndirilmasdan N.Shodmonov yana o‘sha bankdan kredit olishga bel bog‘ladi va bankda bu ishga mas’ul Sanjarga yuzlandi. Bu safargi kreditga ham D.Sobirov kafil bo‘ldi. Ammo bundan o‘zining xabari yo‘q edi. N.Shodmonov Sanjarga eski kafillik shartnomasi orqali bu ishni hal qilib berishni so‘rab, kreditni har doimgidek vaqtida to‘lashini aytdi. Sanjar ham bunga rozi bo‘lib, hujjatlarni tayyorladi va N.Shodmonovga kredit chiqarib berdi. Sanjarning bu harakatlaridan bankdagi hamkasbi O.Azizovning xabari bor edi va uning ishlariga qarashib turardi.

Sanjar ishlayotgan bankdan D.Sobirov ham faoliyatini kengaytirish maqsadida kredit olgan edi. Biroq uning ishlari orqaga ketib, kreditni vaqtida to‘lolmadi. Sanjarga esa bank raisi mijoziga ajratgan kreditni undirish choralarini ko‘rishni buyurdi. Sanjar D.Sobirovning uzoq vaqtdan buyon so‘ndirilmasdan kelayotgan kreditini vaqtincha yopish maqsadida N.Shodmonov kreditlariga to‘lagan 78 million so‘mni hech kimga bildirmay, mazkur MChJlar o‘rtasida tuzilgan eski uch tomonlama kafillik shartnomasi orqali D.Sobirov rahbarlik qilib kelayotgan “Shirin dunyo” MChJ hisob raqamiga o‘tkazib yubordi. Natijada N.Shodmonovning krediti belgilangan muddatda to‘lanmaydi va qarzdorligi oshib ketadi. N.Shodmonov holat yuzasidan bank mas’ullariga yuzlanganda bank xodimlari N.Shodmonov krediti uchun to‘lagan mablag‘lar boshqa MChJ hisob raqamiga o‘tib ketgani va buni aniqlash uchun prokuratura organlariga murojaat qilishini bildiradi. Prokuratura organlari tomonidan o‘tkazilgan tekshiruv natijasida Sanjar “Zebo servis” MChJ uchun to‘langan kredit mablag‘larini rastrata qilish yo‘li bilan talon-toroj qilinganligi aniqlanadi. Shundan so‘ng u “Zebo servis” MChJ rahbari N.Shodmonovga “Shirin dunyo” MChJ hisob raqamiga o‘tkazib yuborilgan pullarni qaytarib, yetkazilgan zararni qoplab beradi.

Nodirbek YARASHEV,
Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti Samarqand shahar bo‘limi katta inspektori.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Xakberdiyev Mardonga (1979-yil 18- iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasida marhum Salamov Ali Manonovichga (2023-yil 31-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qodirov Ulug‘bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko‘chasi, 15-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Vafoyev Rustamga (2018-yil 17-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 12-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Mo‘minov Musin Muinovichga (2006-yil 4-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Akilov Abdukarim Muyinovichga (2015-yil 4-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 17-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Karaxodjayeva Irkin Babaxodjayevnaga (2019-yil 4-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 41/100-uy.

* * *

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Qurbonov Xoshim Nasimovichga (2022-yil 21-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Sa’dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko‘chasi.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Muxtarova Djamila Israilovnaga (2022-yil 13-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 158-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Sharifov Xasanga (2003-yil 28-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 158-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Samarqand davlat tibbiyot institutidan 2015-yil 14-aprelda Akbarova Zuxra Askarovna nomiga berilgan qayd raqami 525 bo‘lgan guvohnoma yaroqsiz holga kelganligi sababli bekor qilinadi.

To'yxat o'rnida

MUNOSIBLIK MAS'ULIYATI

Bunday o'ylab qarasak, Mahorat Orziyevna doimo sinovlarga duch kelib yashayapti. Sinov deganim oiladagi, jamiyatdagi o'zgarishlar, jarayonlar talabini his etishni nazarda tutyapmiz. Masalan...

Birinchi sinov – uning Orzu Mahmudovdek taniqli inson farzandi bo'lganligi. Olti o'g'il va bir qiz doimo bitta shiorga – sulola, aniqrog'i, ota-ona sha'niga munosib bo'lishga majbur edi. Binobarin bu katta sinov. «Otam har gal oilaviy suhbatda har birimizdan o'qigan kitobimiz, qilgan yaxshiligimizni so'rardi. Onam esa kundalik daftarlarimizni albatta, nazoratdan o'tkazardi. Ularning bu e'tibori bizni doimo mas'uliyatda ushlab turardi», deydi Mahorat opa.

Ana shu tuyg'u olti nafar farzandni ham ilmga ishtiyoqini kuchaytirdi, ularga jamiyatda o'z o'rnini topib olishga yordam berdi. O'tgan asrning yetmishinchi yillari oxirida qiz bolaning fizika-matematika fanlari mutaxassisi bo'lishga intilishi ana shu ishtiyoq samarasi. Zero, u birinchi sinovdan muvaffaqiyatli o'tdi. 1969-yilda M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining fizika fakultetini tugatdi. Moskvada gidrometeorologiya markazida texnik-laborant bo'lib ishladi, boshqacha aytganda, nufuzli idorada malakaga ega bo'ldi.

Ikkinchi sinov ham Mahorat Orziyevnani ko'p kuttirmadi. U Vatanga qaytganda Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining fizika va astronomiya bo'limida 8 yil faoliyat ko'rsatdi. O'rta maktabni oltin medalga bitirish havasida qo'lga kiritgan ishtiyoqi, talabalikdagi tajribasi yosh olimaga quvvat bag'ishladi. Turli ilmiy anjumanlardagi ishtiroki tezda nazarga tushdi. Shu orada Oliy partiya maktabida ham o'qidi.

Taqdir taqozosiga ko'ra, oilasi bilan yangi barpo etilayotgan Zarafshon shahriga kelganida uni shahardagidan boshqacha sharoitda yashash sinovi kutardi. Turmush o'rtog'i bilan hamkorlikda bu sinovdan ham muvaffaqiyatli o'tdi. Toshkent politexnika institutida dars berdi. Tabiiyki, jonkuyar olima, fidoyi ayol tez orada rahbarlar nazariga tushdi va Zarafshon shahar partiya qo'mitasida xodim, bo'lim mudiri, va nihoyat mafkura bo'yicha kotib etib saylandi. Bu jarayonda ilmni ham yig'ishtirib qo'ymasdan fan nomzodligi dissertatsiyasini himoya qildi.

Uchinchi sinovga M.Boqiyeva Navoiy viloyati ijroqo'mi raisi o'rinbosarligiga kelganida duch bo'ldi. Negaki, asosan Buxoro va Samarqand viloyati mutaxassislaridan, faollaridan jalb qilingan kadrlar bilan ishlash barobarida mahalliy kadrlar sulolasini yetishtirish oson ish emas edi. Bundan tashqari, boshqaruv tizimidagi har bir sohani tizimga aylantirish ham ko'p mashaqqat va mehnat talab qildi. To'g'risi, Mahorat Orziyevna bu sinovlardan ham ko'ngildagidek o'tdi. Shu sababli Samarqand va Navoiy viloyatlari birlashgan jarayonda uni Samarqand viloyati ijroqo'mi raisining o'rinbosarligiga loyiq ko'rishdi. Bunday o'zgarishlar jarayoni o'z taqdirimizda ham bo'lganligi uchun uning murakkab jihatlarini yaxshi bilamiz. Ayniqsa, boshqaruv tizimida tartib-intizomni ushlash, buning ustiga «qayta qurish» «hadya» qilgan o'zibo'larchilik o'sha davrdagi har bir rahbar oldiga murakkab vaziyatlarni qo'ydi: hali til muammosi, hali toponimik, hali turli siyosiy guruhlar chiqishlari – barcha-barchasini qat'iyat, sabot va aql bilan hal qilishga to'g'ri keldi.

To'rtinchi sinov esa bu bevosita mustaqilligimizni qo'lga kiritish, dunyo hamjamiyati oldida O'zbekiston nufuzini, yangi davlat jamiyatida barqarorlikni ushlab turish bilan bog'liq edi. Mahorat opa viloyat hokimining o'rinbosari, kasaba uyushmalari birlashmasi raisi sifatida fidoyi safdoshlari qatorida sabot bilan ishladi. Bir paytlari viloyatni boshqargan padari buzrukvori Orzu Mahmudov nomiga munosib ekanligini isbotladi.

Tabiiyki, beshinchi sinov – bu har bir insonning yoshi ulg'ayganda jamiyat oldidagi mas'uliyati bilan bog'liq. Mahorat Orziyevna doimo shukrona aytib yashaydigan odam. Pensiyaga chiqqandan keyin ham bekor o'tirgan emas. «Erudit» ijodiy birlashmasiga rahbarlik qilib kelyapti.

- Men ijodkorlar bilan ishlab, «Yuz yil yashasang ham o'rganib yasha», degan aqidani chuqur tushunib yetdim. Iqtidorlardan, tajribali kadrlardan ko'p narsani o'rgandim, - deydi M.Boqiyeva. - Shuning qatorida, korxonamiz muassisi Bekzod Zokirov (joyi jannatda bo'lsin!) rahbarligida ularga ijod qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berishga harakat qildim.

Darhaqiqat, opa tashabbusi bilan juda ko'plab ko'ngilochar, ijodiy gazetalar chop etildi, tarqatildi. Bu yerda taniqli adiblar ishtirokida uchrashuvlar o'tkazildi.

- Mahoratxonning ishtiyoqi, hayotda zavq bilan yashashi, odamgarchiligiga havas qilaman, - deydi mehnat faxriysi Maryam opa Shodiyeva. – Deyarli har kuni xabarlashib turadi. Biror tanishimiz bemor bo'lsa yoki tadbir uyushtirsa, albatta, borishga undaydi. Bunday ayollar doimo jamiyatimizning ko'rki, hatto quvvati bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, bu ayolni 80 yoshga kirgan deb o'ylamaysiz.

Hayot sinovlari. Aslida u hammamizda bor. Lekin bu sinovlarni inson o'zicha idrok qiladi. Albatta, uzoqni ko'zlagan, yaxshi niyat qilgan kishilar uchun sinov mashaqqati ham shunga yarasha bo'ladi. Mahorat Orziyevna baxt deganda kaftida ushlab turgan omadni emas, baxt yo'lida chekiladigan mehnatu mashaqqatni tushunadi. Ehtimol, bugun ko'pchilikka ibrat bo'layotgan fazilatlarining asl mohiyati ana shundadir.

Qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin, Mahorat Orziyevna!

Alisher MARDIYEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yurist.
Farmon TOSHEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Uljon Amriyeva 1999-yilda Urgut tumanining Etak beshkapa mahallasida tug'ilgan. Ayni paytda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti geografiya va ekologiya fakultetining to'rtinchi bosqich talabasi. Viloyat yakka kurash turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabi paradzyudo bo'limi sportchisi.

"OLIMPIADA CHEMPIONI BO'LMOQCHIMAN"

- Uljon juda tirishqoq, mashg'ulotlarda ham tinmay harakat qiladi, - deydi uning murabbiyi Dilnoza Bahromova. - O'tgan yil O'zbekiston chempioni bo'lib, terma jamoaga qabul qilindi va ketma-ket nufuzli musobaqalarda faxrli o'rinlarni egalladi. Xususan, Ozarbayjonning Boku shahrida o'tkazilgan paradzyudo bo'yicha gran-pri turnirida, Londondagi jahon o'yinlari musobaqasida, Xitoyda o'tkazilgan paraosiyo o'yinlarida bronza medallarini qo'lga kiritdi. Joriy yilning 17-18-fevral kunlari Germaniyada o'tkazilgan IBSA gran-prisida esa 57 kilogramm vazn toifasida chempion bo'ldi.

Uljonoyning matonati, shijoati va uning yutuqlarini tengdoshlariga, talaba-yoshlarga o'rnak qilib ko'rsatish maqsadida SamDU Urgut filialida uchrashuvga taklif qildik. U talabalarga faoliyati, muvaffaqiyatlari, kelgusidagi rejalari haqida gapirib, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish, til o'rganish, sport bilan shug'ullanish borasida maslahatlar berdi.

– 2005-2016-yillar Samarqand shahridagi ko'zi ojiz bolalarga ixtisoslashtirilgan 59-maktab-internatida tahsil olganman, - deydi Uljon Amriyeva. - Keyin shahardagi pedagogika kollejini tugatib, 2020-yilda Samarqand davlat universitetining geografiya fakultetiga o'qishga kirdim.

Oldin sport murabbiyi tanlab, musobaqalarda ishtirok etish uchun shug'ullanmasdim. 2020-yilda Tokioda bo'lib o'tgan paralimpiya o'yinlarida sportchilarimiz erishayotgan yutuqlarni ko'rib, paradzyudoga qiziqishim oshdi va ushbu sport turi bilan muntazam shug'ullanishni boshladim. O'tgan yil terma jamoaga qabul qilindim. Hozirda nufuzli musobaqalarda yurtimiz sharafini himoya qilyapman va bundan juda faxrlanaman. Maqsadim – olimpiya chempioni bo'lib, O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarish.

A.ASHUROV,
SamDU Urgut filiali pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi dotsenti.

Samarqandda shaxmat maktabi qachon ochiladi?

Shaxmat donalari ilk marta Hindiston hududlaridan topilganligi bois shaxmatning asl vatani Hindiston deyiladi. Ammo Surxondaryodagi Dalvarzintepa, Samarqanddagi qadimiy Afrosiyob tepaliklaridan shaxmat donalariga o'xshash shatranjlar topilgan. Bundan ko'rinadiki, shaxmat o'yini qadimdan O'zbekiston hududlarida ham rivojlangan.

Keyingi yillarda shaxmat bo'yicha ketma-ket jahon chempionatlari mezbonligi aynan Markaziy Osiyo mamlakatlariga, xususan, o'tgan yil O'zbekistonga topshirildi. Buning asosiy sabablaridan biri Markaziy Osiyoda shaxmatchilarning yangi avlodi yetishib chiqyapti. Buni mamlakatimiz misolida ham ko'rish mumkin. Jumladan, 2022-yil Hindistonning Chennay shahrida 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida O'zbekiston terma jamoasi mamlakat tarixida birinchi marta oltin medalni qo'lga kiritdi. O'tgan yil samarqandlik 14 yoshli Afruza Hamdamova Italiyada o'tkazilgan yoshlar o'rtasidagi jahon chempionatida O'zbekiston tarixida qizlar o'rtasida ilk jahon chempioni bo'ldi. Yosh grossmeyster Nodirbek Abdusattorov joriy yil jahonning eng yaxshi to'rtinchi raqamli shaxmatchisiga aylandi.

Albatta, erishilayotgan yutuqlar mamlakatimizda shaxmatni rivojlantirish uchun berilayotgan e'tibor natijasi. Yurtimizda ushbu sport bilan shug'ullanuvchi yoshlar soni yildan-yilga ortib boryapti. Ammo ayrim hududlarda alohida shaxmat maktabi va markazlari tashkil qilinmagan. Jumladan, Samarqandda 7 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 1,5 milliondan ziyodni tashkil etadi, lekin viloyatda shaxmat maktabi yo'q.

Viloyat sport boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, sport ta'lim muassasalarining 19 tasida shaxmat va 2 tasida para shaxmat bo'limi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 110 dan ortiq shaxmat guruhi tashkil etilgan bo'lib, bor-yo'g'i 1000 nafardan ziyod yoshlar shug'ullanar ekan. O'zbekiston terma jamoasiga esa 9 nafar shaxmatchi qabul qilingan, xolos. Bu raqamlardan ko'rinib turibdiki, viloyatda shaxmatga qiziquvchi yoshlar shaxmat bo'limlariga to'liq qamrab olinmagan. Viloyatimizdan Shuhrat Safin, Tohir Vohidov, Jahongir Vohidov, Ibrohim Hamroqulov, Jo'rabek Hamroqulov, Aleksey Barsov va Marat Jumayev kabi grossmeysterlar yetishib chiqqan. Lekin haligacha ularning nomi bilan ataluvchi shaxmat maktablari tashkil etilmagan.

Viloyatda shaxmatni rivojlantirish uchun qanday ishlar qilinishi kerakligi va muammolarga yechim topish xususida viloyat shaxmat federatsiyasi o'rinbosari, xalqaro toifadagi grossmeyster Tohir Vohidovning fikrlarini so'radik.

- Shaxmat bo'yicha O'zbekistonning birinchi chempionati 1930-yilda Samarqandda o'tkazilgan va shaharda 1973-yil oxirlarida ish boshlagan shaxmat maktabi respublikada yagona bo'lgan, - deydi T.Vohidov. – Mustaqillikkacha va undan keyingi yillarda ham shaxmat maktablari bor edi. Keyinchalik shaxmat maktablari tugatilib, hududlardagi sport maktablari qoshida shaxmat bo'limlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Keyingi paytda shaxmat bilan shug'ullanuvchilar soni ko'paymoqda. Oldin tuman va viloyat chempionatlarida 100-200 nafar kishi qatnashgan bo'lsa, hozir har bir hududda undan ham ko'p shaxmatga qiziquvchilar bor. To'g'ri, keyingi paytda yoshlar o'rtasida DXX, prokuror kubogi va "Rokirovka" turnirlari tashkil etilib, musobaqalarga jalb qilinyapti. Ammo viloyatda shaxmatga qiziquvchi yoshlarning muntazam shug'ullanishini ta'minlash uchun avvalo, shaxmat markazi va maktabi tashkil qilish kerak.

Keyingi uch yilda yurtimizda shaxmatni rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining uchta qarori qabul qilindi. Xususan, Prezidentning 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik asosida 2025-yilgacha shaxmat maktablari va klublari faoliyatini yo'lga qo'yish, ta'lim muassasalarida shaxmat bo'limlari va to'garaklarini tashkil qilish belgilangan. Ammo Samarqandda haligacha shaxmat maktabi ochilmadi. 2026-yilda 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi Samarqand shahrida o'tkazildi. Tabiiyki, shahrimizga kelgan xorijlik shaxmatchi va mehmonlar hududning shaxmat bazasi, u yerda yaratilgan sharoitlarni ko'rishni istaydi. Bizda esa hozircha bunday joy yo'q.

Ikkinchidan, FIDE reytingli o'ndan ortiq musobaqalarni o'tkazish uchun homiy kerak. Bitta iqtidorli shaxmatchi yaxshi natijaga erishishi va o'sishi uchun kamida 15 dan ortiq musobaqada ishtirok etishi talab etiladi. Buning hammasi esa homiy va mablag' bilan bog'liq. Uchinchidan, hududlarda shaxmat klubi va bo'limlarini ko'paytirish, xususan, maktablarda to'garaklar tashkil qilish va tajribali shaxmat murabbiylarini jalb qilish lozim. Afsuski, hozir maktablarda shaxmat trenerlari emas, balki jismoniy tarbiya o'qituvchilari biriktirilgan. Aytmoqchi bo'lganim, ular orasida shaxmatni tushunmaydiganlari ham bor.

Mutaxassis fikridan ko'rish mumkinki, viloyatda shaxmatni rivojlantirish uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlar talaygina. Lekin bu ishlar amalda qilinadimi-yo'qmi, mas'ullar bu muammolarga qanchalik e'tibor qaratadi, buni vaqt ko'rsatadi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

MATBUOT UYI
Zarafshon
САМАРКАНДСКИЙ ВЕСТНИК

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 12 716 nusxada chop etildi. Buyurtma 212. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56
BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61
MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: O'.XUDOYBERDIYEV.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X
9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda